



Yangi O‘zbekistonda ta‘lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish asosida Uchinchi Rennessans poydevorini yaratish yo‘lida fidokorona faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Siz, muhtaram ustozlarni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayrami bilan chin dildan samimiy qutlaymiz!

Mamlakatimizda yoshlarga ilm-fan asoslari va zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rgatish, ularning intellektual va ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish, Vatanga mehr va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida hamjihatlikda amalga oshirayotgan faoliyatingizga muvaffaqiyat tilaymiz.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan olimlar, o‘qituvchi-murabbiylar, yosh tadqiqotchilar kasbiy faoliyati va ilmiy izlanishlariga zamonaviy shart-sharoit yaratib berish, ularning zahmatli mehnatlarini rag‘batlantirish, ustoz va murabbiylarning jamiyatdagi nufuzini, obro‘-e‘tiborini oshirish yuzasidan keng qamrovli tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ilm-fan taraqqiyotiga muvofiq holda ona Vatanimizda ilmiy-texnologik asoslarni rivojlantirish hamda yurtimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishda olimlar, fidoyi o‘qituvchilar faol ishtirok etmoqdalar.

Ona Vatanimiz taraqqiyoti, bunyodkor xalqimiz farovonligi, yosh avlodlarning kamoloti yo‘lida fidoyilik bilan olib borayotgan ilmiy va pedagogik faoliyatingizga yana bir bor muvaffaqiyat tilagan holda aziz ustoz va murabbiylarni «Til va adabiyot.uz» ilmiy-metodik elektron jurnal jamoamiz nomidan chin dildan qutlab, Sizning sharaflari va mashaqqatli kasbiy faoliyatingizga ulkan zafarlar, ilmiy-ijodiy yutuqlar bilan birga oilaviy baxt va sihat-salomatlik tilaymiz!

“O‘qituvchi va murabbiylar kuni” umumxalq bayrami muborak bo‘lsin!

Hurmat bilan!

«Til va adabiyot.uz» ilmiy-metodik elektron jurnal jamoasi.